Qabul qilindi: 21-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 24-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 27-sentabr 2026-yil

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Normurodov Diyorbek Muzaffar o’g’li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Davlat boshqaruvi yo‘nalishi magistranti
muzaffarovichdiyorbek1@gmail.com
+998932030210



Annotatsiya. Mazkur tezisda ijtimoiy himoya tizimida raqamlashtirishning dolzarbligi va shaffoflilik omiling kam ekanligi tadqiq etiladi. Tadqiqot orqali ijtimoiy himoya tizimida amalga oshirish bo‘yicha tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, ijtimoiy himoya, manzillilik, texnologiya.

IMPROVING THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract. This thesis examines the relevance of digitalization in the social protection system and the insufficient level of transparency in this field. The research uses methods such as analysis, comparison, and generalization to study the improvement of the social protection system.

Keywords: digitalization, social protection, targeting, technology.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В данных тезисах исследуется актуальность цифровизации системы

социальной защиты и недостаточный уровень прозрачности в данной сфере. В ходе исследования для анализа процессов совершенствования системы социальной защиты используются методы анализа, сравнения и обобщения.

Ключевые слова: цифровизация, социальная защита, адресность, технологии.

Kirish. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar yordamida ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish, raqamli ma’lumotlar aniqlashni soddalashtirish va aholining turli ehtiyojmand qatlamlariga yordamni raqamlashtirishning afzalliklari haqida ma’lumotlar beriladi. Ehtiyojmand qatlam avvalo nogiron, ishsiz, talaba, boquvshisi yo‘q va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar kiradi. Ularning ma’lumotlari daromadlarini aniqlash borasida davlat tomonidan ishlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan ularning ma’lumotlarini raqamlashtirish va har bir islohotda ularni xabardor qilish yuzasidan tadqiqot qilingan.



Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mavzuni o‘rganish borasida o‘zbek va chet el adabiyotlar va rivojlangan davlatlar yo‘nalishlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi bu esa mamlakatimiz uchun ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirishni yangi pog‘onaga olib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzu bo‘yicha tadqiqot asosan sifat va miqdoriy usullar yordamida o‘rganildi. Ammo tadqiqotda aralash tadqiqot usuli ham qo‘llanilgan. Bu usullar orqali tadqiqotni o‘rganish analiz va sintez qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. So‘nggi yillarda mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini raqamlashtirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag‘lar hajmini oshirish, qo‘shimcha resurslarni jalb etish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish hamda og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni bunday holatdan chiqarish bo‘yicha qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish ishlari olib borilmoqda[1]. Bundan asosiy maqsad ijtimoiy himoya tizimida haqiqiy ehtiyojmand fuqarolarga yordamni raqamlashtirishdir.

O‘zbekistondagi innovatsion, texnologiyaga asoslangan ijtimoiy himoya modeli iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va axborot xavfsizligini uyg‘unlashtirgan davlat boshqaruvining yangi paradigmasini ifodalaydi. Ushbu yondashuv mamlakat ijtimoiy siyosatining zamonaviy, shaffof va inklyuziv tizimga aylanishini hamda global standartlar va milliy taraqqiyot ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda rivojlanishini ta’minlaydi[2]. Bu esa turli tarmoqlar kabi ijtimoiy himoyada ham raqamlashtirishni haqiqiy pog’onaga ko‘taradi. Raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya o‘rtasidagi munosabat so‘nggi o‘n yillikda akademik adabiyotlar va siyosatga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda tobora ortib borayotgan e’tiborni tortmoqda. Olimlar va xalqaro tashkilotlar raqamli texnologiyalarni yanada samarali, shaffof va moslashuvchan ijtimoiy himoya tizimlarini yaratishda asosiy vosita sifatida tan olishmoqda[3]. Qonunchilikka muvofiq, davlat tomonidan aholining maqsadli ijtimoiy himoyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

kompleks yondashuvga asoslangan professional ijtimoiy himoya tizimini joriy etish;

ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali qo‘llab-quvvatlashga muhtoj aholining ijtimoiylashuvini ta’minlash[4]. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining ko‘pchilik davlatlari kabi, O‘zbekiston ham nisbatan keng qamrovli raqamli ijtimoiy himoya tizimiga ega. Bu tizim qisman Sovet Ittifoqidan meros bo‘lib qolgan bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ijtimoiy sug‘urta tizimlari (badal asosida ishlaydigan),

ijtimoiy yordam dasturlari (badal to‘lanmaydigan),

hamda mehnat bozori dasturlari.

Mehnat bozori dasturlari esa 2017-yildan boshlab tobora muhimroq rol o‘ynay boshlagan[5]. Ijtimoiy himoya tizimining sug‘urta funksiyasi va qayta taqsimlash funksiyasini shaffof tarzda integratsiya qilishga qaratilgan siyosiy model ishlab chiqilgan[6]. Ijtimoiy himoya tizimning asosiy kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya (SP) tizimini mustahkamlash bo‘yicha bir qator xulosa va tavsiyalarni taqdim etadi[7]. 2030 Strategiya doirasida ikki dasturni tasdiqlash ko‘zda tutilgan:

hududlarni raqamlashtirish,

tarmoqlarni (sohalarni) raqamlashtirish [8].

Ushbu muammolarga javoban, zamonaviy texnologiyalar ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilash, qarovsiz qolgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash va aholining hech bir qatlami e'tibordan chetda qolmasligini ta'minlash uchun innovatsion yechimlarni taklif etadi[9]. Ushbu qonun qaramlik va iqtisodiy resurslarga nisbatan iste'molchilik munosabatini taqiqlaydi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan ijtimoiy himoya yangi manzilga ega bo‘ladi[10]. Bu esa jamiyat va davlatning raqamlashtirish siyosatini yangi zamon talablariga moslashtiradi.



Xulosa. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy himoya tizimini samarali va shaffof qilish imkonini beradi. Ular yordamida ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, naqd va elektron yordamlarni avtomatlashtirish, aholi ehtiyojlarini aniq tahlil qilish mumkin. Shuningdek, raqamli platformalar orqali fuqarolarning tizimga kirish imkoniyati oshadi va korrupsion xavf kamayadi. Tizimni takomillashtirishda raqamli infratuzilma, xavfsizlik choralarini mustahkamlash va aholiga raqamli xizmatlar bo‘yicha ta’lim berish muhim ahamiyatga ega. Natijada, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va aholining hayot sifati sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Fayzieva M, Abdurakhmanova G, Eshov M, Khudoykulov S, Kurbonov S, Goyipnazarov S. *The Role of Digital Development in the Reinforcement of the Government Social Protection System of Uzbekistan*. ACM Digital Library, ICFNDS 23 Proceedings, 2024, pp. 42–43.

2. Aliyev M, Mamatov A *Strategic directions for modeling social protection of the population based on innovative technologies. Modern education and development*. Выпуск журнала №-36 2025, pp. 329.

3. Aliyev M, Rasulova F. *Practical Application of Digital Services in Social Protection Across Regions*. Obrazovanie, №84, Chast 1, Dekabr 2025, 91-92-betlar.

4. Ametova F. R. *Changes in the Social Protection of the Population in the Republic of Uzbekistan and Their Development* // Journal of Community, Law and Diplomacy Sciences. – 2025. – Vol. 2, No. 1. – pp. 3.

5. Carraro L. *Overview of Social Protection System in Uzbekistan and Assessment of Active Labor Market Policies.* – London: Asian Development Bank, 2019. – pp. 2.

6. Musurmonova M. S, Qurbonov T. N, Shodiyev F. Q. *Improving the Social Insurance System* // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2025. – 76-son, 1-to‘plam. – pp. 286.

7. Umid A. *An assessment of the social protection system in Uzbekistan, based on the Core Diagnostic Instrument* (CODI). Moscow, Russia: International Labour Organization, 2020, pp 9.

8. Karieva G, and Rasulova M. *“Experience of development of digital technologies in Uzbekistan.”* In E3S Web of Conferences, vol. 05019. EDP Sciences, 2021, pp. 2.

9. Mamatalieva. D, R. *“The Role of Modern Technologies in Developing Uzbekistan’s Social Sector and Supporting Vulnerable Populations in the Context of Global Migration.”* Yurt Faxri ilmiy-amaliy ko‘rik tanlovi. Toshkent: University of World Economy and Diplomacy, 2024, 1-bet.

10. Abdullaeva Sh. *“Stages of Improving the Policy of Social Protection of the Population.”* Aktuar Moliya va Buxgalteriya Hisobi Ilmiy Jurnali, vol. 4, no. 11, 2024, pp. 164.